| QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA MAHSULOTLAR INTENSIV RIVOJLANISHINI TA'MINLASH JARAYONLARI .....   | 512 |
| Saburov Jumanazar Salievich   |     |
| SUG'URTA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI VA MEXANIZMLARI.....  | 516 |
| E.Sobirov   |     |
| “YASHIL IQTISODIYOT”GA O'TISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IQTISODIY FAOLIYATNING ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH ..... | 520 |
| Xo'janova Gulshoda Otamurodovna   |     |
| QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI .....   | 526 |
| Dilafuz Taylakova   |     |
| KORXONALARDA EKOLOGIK INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI TAHLILI.....   | 532 |
| Ulashov Aliboy Rashid o'g'li  |     |
| YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK VA MOLIYAVIY TIZIMLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR TAHLILI HAMDA KELGUSIDAGI ISTIQBOLLARI .....              | 538 |
| G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Alarov Asilbek Oybek o'g'li  |     |
| SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK BARQARORLIGI VA EKOLOGIK IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH MASALALARI.....  | 545 |
| O'rinov Diyor, Xolliyev Sh.B.   |     |



|   |     |
|---|-----|
| YASHIL IQTISODOYOT VA UNDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....  | 549 |
| Ermuminov Elbek Erkin o'g'li, Yaxshiqulova Moxinur Toxir qizi   |     |
| XIZMATLAR SOHASIDA KADRLARNING TUTGAN O'RNI .....   | 553 |
| Turayeva Nargiza Rustamovna   |     |
| IQTISODIYOTDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING USTUVOR<br>YO'NALISHLARI .....  | 557 |
| G.P.Erkayeva, N.H.Qo'ziboyeva   |     |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL<br>IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI .....                                | 560 |
| Samadova Jasmina Sherali qizi, Sh. Xolliyev   |     |
| "YASHIL" ENERGETIKA VA "YASHIL" IQTISODIYOT.....  | 564 |
| Qarshiyeva Dilsora Ismoil qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li  |     |
| MAMLAKAT BUDJETINING SHAKLLANISHI VA DAROMADLAR TAQSIMOTINING<br>IQTISODIYOTDAGI ROLI .....   | 569 |
| Ashirqulova Sevinch Sarvar qizi, Sh. Xolliyev   |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI<br>RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....   | 574 |
| Urozoova Shahlo Hasan qizi, Rahmonova Tillaoy Malik qizi  |     |
| "YASHIL" IQTISODIYOT INNOVATSION RIVOJLANISHINING KO'RSATGICHLARI.....  | 579 |
| Mirzayev Kulmamat Djanakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li   |     |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING<br>NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                 | 583 |
| Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna   |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY<br>RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....        | 588 |
| Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna   |     |
| СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА:<br>РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ.....                | 593 |
| Чекулаева Кристина  |     |
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ<br>ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ<br>ЭКОНОМИКЕ..... | 599 |
| Чекулаева Кристина  |     |
| YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI.....   | 605 |
| Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA<br>TA'LIMNING AHAMIYATI .....   | 608 |
| M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid  |     |
| MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER<br>EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY .....                    | 613 |
| Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich  |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY<br>MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI .....        | 617 |
| Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi   |     |
| YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....   | 621 |
| Gulrux Arslon qizi Ismoilova  |     |



# XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

**Mirzayev Qulmamat DJonuzoqovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Raqamli iqtisodiyot kafedrasini mudiri,  
Iqtisod fanlar doktori, professor.  
[mirzayevpro@umail.uz](mailto:mirzayevpro@umail.uz)

**Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich**

SamDAQU o'qituvchisi  
[Azzammirzayev1970@gmail.com](mailto:Azzammirzayev1970@gmail.com)

**Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
I bosqich tayanch doktoranti  
[eshquvvatovanodira1@gmail.com](mailto:eshquvvatovanodira1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, innovatsion jarayonlarni tartibga solishning institutsional va huquqiy jihatlari, shuningdek, xorijiy tajriba asosida milliy modelni takomillashtirish yo'llari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion iqtisodiyot, integratsiya, modernizatsiya, strategic yondashuv, xizmat ko'rsatish.

**Abstract:** This article discusses the institutional and legal aspects of improving the quality of service provision, strengthening competitiveness and ensuring economic efficiency through the development of innovative activities, regulating innovation processes, as well as ways to improve the national model based on foreign experience.

**Key words:** Innovative economy, integration, modernization, strategic approach, service.

**Аннотация:** В статье рассматриваются институционально-правовые аспекты повышения качества предоставления услуг, усиления конкурентоспособности и обеспечения экономической эффективности за счет развития инновационной деятельности, регулирования инновационных процессов, а также пути совершенствования национальной модели с учетом зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** Инновационная экономика, интеграция, модернизация, стратегический подход, предоставление услуг.

## KIRISH

Jahonda raqobatlashuv darajasining keskin darajada o'sib borishi sharoitida xizmat ko'rsatishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, zamonaviy xizmat ko'rsatish turlarini joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65–80 foizni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar hissasi esa 3 foizni tashkil etmoqda<sup>1</sup>. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosida

<sup>1</sup> <http://stats.oecd.org/>



xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 foizdan ortiqni va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 foizi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda."

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jahonda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda bozor tamoyillariga muvofiq innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy dastaklardan maqsadli foydalanish hamda samarali raqobat usul va vositalarini ishlab chiqish yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda.

Bu borada innovatsion tadbirkorlikni samarali tashkil qilish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan bozor usullariga muvofiq holda qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani istiqbol talablarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarini innovatsion asosda rivojlantirish, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish intensivligi va samaradorligini zamonaviy talablarga ko'ra ta'minlash hamda xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish borasida dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, sohada innovatsion tadbirkorlikni keng joriy etish, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali usullarini joriy etish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son "Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Servis iqtisodiyotining shakllanishi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatni shakllanishi, iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar<sup>2</sup>, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish xususiyatlari, servis faoliyatining innovatsion jihatlari xorijlik olimlar, jumladan<sup>3</sup>: E.F.Avdokushin, T.D.Burmenko, V.A.Bespalov, V.A.Demidov, N.N.Lebedeva, O.S.Oleinik, A.P.Egorshin, S.A.Zaichenko va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan<sup>4</sup> M.Q.Pardaev, M.E.Po'latov, M.M.Muxammedov,

- 2 Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.
- 3 Авдокушин Е.Ф. и др. Новая экономика: монография / Под ред. Е.Ф.Авдокушина, В.С. Сизова. - М.: Магистр. - 2009. - 542 с.; Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Беспалов В. А. Государственная научно-техническая и инновационная политика: учеб. пособие / Б.А. Беспалов Д.Б. Рыгалин; Моск. гос. ин-т электрон. техники (техн. ун-т). - М., 2007. - 92 С.; Демидов В. А., Лебедева Н.Н., Олеиник О.С. Региональная инновационная система: потенциал и тенденции развития. - Волгоград: Изд-во Волгоградского гос. ун-та. - 2008. - 316 с.; Егоршин А.П. и др. Управление инновационным развитием региона. Монография. - Нижний Новгород: НИМБ. - 2008. - 283 с.; Заиченко С.А. Развитие инноваций в сфере услуг // Форсайт. 2007. - № 1. - С. 30-33.
- 4 Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилини такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув кўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 332 б.; Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие. – Т.: ТашГИВ 2017. – С. 15-17.; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- Киев. 1992 – С. 20.



D.R.Zaynalov, Q.J.Mirzayev, I.S.Tuxliev, X.P.Abulkasimov, T.S.Rasulov, N.U.Arabov, D.X.Aslanova, B.Sh. Safarov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

## TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL NATIJALARI

Hozirgi iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida innovatsiyalar va innovatsion faoliyatning roli sezilarli darajada o'smoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyalarni joriy qilmasdan yuqori darajadagi texnologiya, intensivlik va ilmiy yangilikka ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlarni yaratish deyarli mumkin emas. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida innovatsiyalar va innovatsion faoliyat raqobatga bardosh berishning samarali vositasi hisoblanadi. Chunki ular yangi turdagi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga, mahsulot (xizmat) tannaxining pasayishiga, investitsiyalar oqimiga, yangi mahsulot ishlab chiqaruvchilarning obro'ini oshishiga, yangi bozorlar, shu jumladan, xorijiy bozorlarni ochish va egallashga shart-sharoit yaratadi.

So'nggi o'n yillikda xizmat ko'rsatish sohalari bilimlar iqtisodiyoti va innovatsiyalarga intensiv ravishda integratsiya qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar tobora ko'payib borayotgan kompaniyalarning biznes jarayonlarini ajralmas qismiga aylanib bormoqda va fan sig'imi darajasi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasi sanoat bilan birga jadal sur'atlarda o'sib bormoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida xo'jalik sub'ektlarining ilmiy salohiyati davlat tomonidan moliyalashtirish hisobidan jiddiy ravishda o'sib bormoqda. Bugungi kunda davlat mablag'larining asosiy qismi xususiy tadqiqot markazlari va laboratoriyalari, axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar hamda muhandislik-qurilish kompleksiga yo'naltirilmoqda. Bir qator tarmoqlar, xususan, sog'liqni saqlash uchun tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi fundamental tadqiqotlarga davlat mablag'lari sarflanishi, innovatsiyalarni rag'batlantirish, moddiy resurslar, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatini oshirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.


Innovatsiya – bu yangi g'oyalarni izlash, mahsulotlarni yaratish va amaldagi mahsulotni takomillashtirish, ularni ishlab chiqarish uslublari, sarf-xarajatlarni tejash, mahsulotni yangicha hayotiy davrini amalga oshirish jarayoni sifatida bozorda realizatsiya qilish asosida talab va taklif muvofiqligiga erishish bosqichini namoyon qiluvchi faoliyat natijasidir.

Innovatsion faoliyat - ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar assortimentini kengaytirish va yangilash hamda sifatini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va tijoratlashtirishga, keyinchalik ichki va tashqi bozorga joriy etish hamda samarali joriy etishga qaratilgan faoliyat. Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion faoliyat bozorga sifat jihatidan yangi yoki takomillashtirilgan xizmatlarni taqdim etish orqali o'zini namoyon qilishi mumkin.

O'z navbatida, bu nafaqat sifat jihatidan yangi xizmat, balki xizmat ko'rsatishning tubdan yangi xususiyatlari ham bo'lishi mumkin. Respublikamizda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun xizmat ko'rsatish va servis sohasida innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Shunga ko'ra, respublikamiz turli hududlarining amaliy tajribalarini tahlil qilish asosida hududiy xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlari ishlab chiqildi. (1-rasm).

Ushbu mexanizmning o'ziga xos jihati shundaki, yetakchi o'rin hududning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarga berilgan.

Mexanizm tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda faol ishtirok etishga yo'naltirilgan, uning manfaatlarini inobatga oladi va hududdagi korxonalar tomonidan innovatsiyalarga bo'lgan talabni rivojlantirishga qaratilgan. Keng ma'noda mazkur mexanizm tashabbuslar va uni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar – ilm-fan va biznes hamkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish yo'nalishlarini belgilaydi.

1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash<sup>5</sup>

Xulosa va takliflar: Hududiy darajada xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi soha korxonalarining innovatsion faolligini oshirishga muhim turtki bo'ladi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli dastur doirasida taklif etilayotgan yo'nalishlar, xususan, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiya kiritish kabi chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu dasturda belgilangan vazifalar innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga, kichik innovatsion korxonalarining faoliyatini mustahkamlashga va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi:

Innovatsion faoliyatga oid mavjud qonunlar va normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va yangi huquqiy asoslarni ishlab chiqish zarur.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun texnologiya transferi markazlarini, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni tashkil etish zarur.

Kichik va xususiy tadbirkorlik vakillariga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va byudjet ssudalari orqali qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, davlat tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar uchun tariflarni tabaqalashtirishni joriy etish kerak.

Har bir hududda innovatsion xizmat ko'rsatish ishlanmalari uchun tanlovlar tashkil etish, bu orqali hududiy o'ziga xos ehtiyojlar va imkoniyatlarga mos yechimlarni ishlab chiqish mumkin.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy investorlardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni import qilish va eksport qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur.

5 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion faoliyatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – 2019 yil. Manba: [www.president.uz](http://www.president.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xizmat ko'rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish va innovatsion ishlanmalarni joriy etish to'g'risida»gi Qarori. – 2020 yil. Manba: [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni. – 2021 yil. Manba: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellectual mulkni himoya qilishni mustahkamlash va innovatsion loyihalarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – 2020 yil. Manba: [www.uzdaily.uz](http://www.uzdaily.uz)
5. Shukshina I. P., Shirokova M. M. Innovatsion iqtisodiyot: nazariy asoslar va amaliyot. – Buxoro: Iqtisodiyot nashriyoti, 2018. – 320 bet. ISBN: 978-5-7892-3456-9.
6. Pukinel V. P. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar va raqobatbardoshlik. – Moskva: Ekonomika nashriyoti, 2020. – 276 bet. ISBN: 978-5-9005-0123-6.
7. Vasiliev A. V. Innovatsion menejment. – Sankt-Peterburg: Biznes va menejment nashriyoti, 2017. – 412 bet. ISBN: 978-5-9265-5637-8.
8. Venediktov N. F. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion strategiyalar. – Moskva: Yuridik nashriyot, 2019. – 291 bet. ISBN: 978-5-9372-8490-7.
9. Kolesnikov T. G. Xizmat ko'rsatish va intellektual mulkni boshqarish. – Moskva: Ekonomika nashriyoti, 2021. – 305 bet. ISBN: 978-5-9479-0187-3.
10. Mirzayev Q. J., Shavqiyev E. Sh., Janzakov B. K. Innovatsion iqtisodiyot: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlantirish nashriyoti matbaa uyi, 2020. – 330 bet.
11. Xaydarov S. A., Karimov M. O. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish. – Toshkent: Iqtisodiyot va tashqi savdo nashriyoti, 2019. – 264 bet. ISBN: 978-9943-5157-0.
12. Tursunov Sh. N. Innovatsion iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sektori. – Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar nashriyoti, 2021. – 312 bet. ISBN: 978-9943-6157-1.
13. Azimov A. B. Xizmat ko'rsatish sektoridagi innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsion iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 277 bet. ISBN: 978-9943-3195-0.
14. Innovatsion iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi. – O'zbekiston iqtisodiyoti va moliya jurnali, 2021. – 56–59 bet. ISSN: 2661-8885.
15. Xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mulkni boshqarish. – Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2022. – 25–29 bet. ISSN: 2661-944X.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>